

KOMPOZITOR SOBIR BOBOYEVNING “HAMZA” OPERASI XUSUSIDA

Mohinur Muhammadjonova

Farg‘ona davlat universiteti “San‘atshunoslik” fakulteti

“Musiqqa ta‘limi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada kompozitor Sobir Boboyevning “Hamza” operasi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, operaning nazariy tahlili maqolada o‘z aksini topgan.*

Kalit so‘zlar: *opera, san‘at, drama, teatr, folklor, libretto.*

O‘zbek musiqa san‘atiga opera janrining kirib kelishi kompozitorlik ijodining yanada yuksalishi uchun muhim omil bo‘libgina qolmay, kompozitorlar zimmasiga ulgan mas‘uliyatlarni ham yukladi. Avvalo opera teatrlarining repertuarlarini o‘zbek kompozitorlari asarlari bilan boyitish ustuvor masalalardan biri bo‘ldi. “Bo‘ron”, “Buyuk kanal”, “Layli va majnun”, “Ulug‘bek” kabi operalar bu borada dastlabki qadamlardir. Albatta, mazkur asarlarning o‘ziga yarasha yutuq va kamchiliklari bo‘lgan. Biroq vaqt o‘tishi bilan bu sohada katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu kabi yutuqlar qatorida S.Boboyevning “Hamza” nomli operasini sanab o‘tish mumkin. Chunki, mazkur operada ko‘p mualliflikdan va iqtiboslar asosida asar yaratishdan voz kechilganligining o‘ziyoq yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

S.Boboyevning “Hamza” nomli operasi o‘zbek xalqining mard o‘g‘loni – Hamza Hakimzoda Niyoziyga “XX asr o‘zbek musiqasi tarixi” sahifalarida chuqur iz qoldirgan obro‘ e‘tiborga sazovor bo‘lgan xalqimizning sevimli bastakorlarining safida birinchilardan bo‘lib Hamza 1917-yilda sodir bo‘lgan oktabr inqilobini katta umid bilan qutladi. U xonlik davridagi va Rossiyasining mustamlakachilik siyosati ostida qolgan Turkiston xalqlarining iqtisodiy-ijtimoiy og‘ir ahvollarini ko‘zi bilan ko‘rdi. Dili bilan sezdi va nafratlandi. O‘sha muhitdagi inqilobiy kayfiyatdagi ishchi – dehqonlar, hunarmand, ziyolilar bilan yaqin aloqada bo‘ldi. Ya‘ni, xalqlarning ozodlik uchun kurashi tus olgan davrda yashadi. U istiqbol taraqqiyot yo‘liga qaratilgan yangi zamoni she‘rlarida, qo‘shiqlarida aks ettirdi. O‘tmish zamonda sodir bo‘lib kelgan mushtumzo‘rlik, nohaqlik, poraxo‘rlik va jamiyatda uchrab turadigan nuqsonlarni sahna asarlarida aks ettirib fosh qildi. Jadidchilik davri va yangi zamon ruhida shakllangan Hamza ijodiy izlanib, yangilikka intildi. O‘zbek va boshqa xalqlarning qo‘shiqchilik an‘analarini o‘rgandi. Ularga suyanib ijodiy foydalandi. Sotsialistik tuzum talablariga javob bera oladigan bir qator ommaviy va lirik qo‘shiqlar yaratdi. Uning 1918-1928 yillarda marsh, vals shakllarda bastalangan quyidagi qo‘shiqlari: “Ishchilar uyg‘on”, “Biz ishchimiz”, “Hoy ishchilar”, “Hoy-hoy otamiz”, “Ishchi bobo”, “Bitsin istibdod”, “Uyg‘onmoq davrida”, “Yasha Sho‘ro”, “Tursunoyga marsiya” kabi qo‘shiqlari

o'zining do'sti, safdoshi hofiz Muhiddin Qoriyoqubov va boshqa xonandalarning ijrosida mashhur bo'lib ketdi. Uzoq yillar davomida ijro etib kelindi.

Opera 1961-yil 27-mayda ilk bor sahna yuzini ko'rdi. K.Zokirov (Hamza), Halima Nosirova (Saodat), Saodat Qobulova (Sanobar) va Sattor Yarashev (Olimjon) kabi solist va aktyorlarning mahoratli ijrolari tufayli opera saviyasi yanada oshdi va omma tomonidan yuksak baholandi. Opera librettosi Komil Yashin va A.Umariyning shu nomdagi dramasi asosida yozilgan bo'lib, 3 parda 6 ko'rinishdan iborat.

Unda 20-yillarning oxirida bo'lib o'tgan voqealar yoritilgan. Opera markazida – Hamza turadi. Uning qiyofasida mard, jasur, xalq dushmanlariga nafrat bilan qarshi kurashuvchi va inqilobning jonkuyar tarafdori sifatidagi shaxs gavdalanadi. Hamza va uning ayoli – Saodat obrazlarining dunyoqarashlaridagi qarama-qarshiliklar yaqqol sezilib turadi. Saodat Hamzani sevadi va unga sodiq bo'lsada, Saodatning dindor ayol ekanligi, aniqrog'i uning ong-shuuri noto'g'ri targ'ib etilib, niqob qilib olingan din g'oyalari bilan qorong'ulashganligi bois u Hamzaning hatti-harakatlarini to'g'ri ravishda baholay olmaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek “Hamza” operasida [Operaning qisqacha mazmuni: fuqarolar urushi tugagan, Farg'ona vodiysining go'zal go'shalaridan biri Shoximardonda Hamzaning faoliyati avj olib bormoqda. U qishloq kambag'allari bilan birgalikda kanal qazish, maktablar ochish, yoshlar uchun musiqa to'garaklarini tashkil etish kabi hayrli ishlarni boshlab yuborgan. Hamzaning faoliyati dinni niqob qilib olgan “jonkuyar vatanparvarlar” – shayx Ismoil va uning izdoshlarini g'azablantirayotgan bir payt. Sovet tashkilotining mas'ul hodimi niqobi ostidagi inqilob dushmani bo'lmish Naziriy va yovuz niyatli odamlarning fitnasi tufayli Hamza halok bo'ladi.] ham kamchiliklar yo'q emas. Masalan, operadagi salbiy qahramonlar unchalik jonlantirilmagan (shaxslantirilmagan), ya'ni shayxlar, darvishlar, boylar va inqilobga qarshi dushmanlar umumlashma obraz sifatida aks ettirilgan bo'lib, ularning na ariyasi, na ariozasi bor. Shunday bo'lsa-da, ular ichida shayx Ismoil va Naziriy kabi shaxslar bir oz ajratib ko'rsatiladi. Bundan avval yaratilgan operalar: “Bo'ron”, “Layli va Majnun” kabi operalarda ham shunday kamchilikni ko'rish mumkin. Librettoning o'ziga xos kamchiliklari esa undagi ba'zi bir o'zbek badiiy tiliga unchalik ham mos kelavermaydigan iboralar (“klub”, “chiroq”, “kino”, “elektr qurarmish”, “kam bo'lmang”) qo'llanilganligida namoyon bo'ladi. Rechitativlar chet el, xususan rus operalaridagi rechitativlarga juda o'xshash. Shu bilan birga ijobiy va salbiy qahramonlarning rechitativlari orasida tafovut sezilmaydi.

“Hamza” operasining ohang xususiyatlari xilma-xildir. Chunki unda o'zbek folklori, kasbiy musiqa, xususan ashulalarga xos jihatlar va diniy marosim aytimlaridagi musiqiy o'ziga xosliklar mavjud.

Avvalgi operalardan farqli o'laroq, S.Boboyev asl xalq kuylaridan deyarli foydalanmagan. Lekin o'zbek milliy ohanglari yaqqol sezilib turadi. Bularni aniq misollar bilan ko'rib chiqamiz. Opera musiqasida Hamzaning qo'shiqlari ham yetakchi ahamiyatga egadir. Da'vatkorona ohangdagi "Yasha Sho'ro!" operaning orkestr ijro etuvchi muqaddimasida yangraydi. Bundan asar bosh qahramoni – Hamza inqilob tarafdori ekanligi ma'lum bo'ladi.

Orkestr ijrosidan so'ng Hamzaning inqilob yillari xalq orasidagi faoliyati aks ettirilgan. Uning harakatchan xarakterdagi "Ishchilar, uyg'on" qo'shig'i muqaddima asosini tashkil etadi. S.Boboyev Hamza Hakimzoda Niyoziy yaratgan mazkur qo'shiqlaridan foydalanganligi bejiz emas, albatta. Birinchidan, operaning o'zi Hamzaga bag'ishlangan. Ikkinchidan esa bu qo'shiqlar ohangi opera muqaddimasining o'zidayoq asar mazmunini to'laqonli ravishda ochib beradi.

Hamzaning bu qo'shig'idagi yana bir ahamiyatli jihat shundaki, asar si-eoliy (tabiiy minor) ladida yozilgan bo'lsa ham major ohangida yakunlanadi. O'rta asrlar kompozitorlari, jumladan I.S.Bax ijodida asar albatta major ohangi bilan yakunlanishi – bir qoida sifatida bo'lgan. Chunki minorga – noturg'unlik, tugallanmaganlik belgisi sifatida qaralgan. S.Boboyev ham "Hamza" operasining bir qancha nomerlari, xususan, Muqaddimadagi "Ishchilar uyg'on" (klavirning 12-beti), ikkinchi ko'rinishdagi Hamza ariyasi, Hamza o'zi yozgan musiqa asarining notalarini Stepanovga ko'rsatgach, ular xor bilan birga kuylovchi sahnaning yakuni, to'rtinchi ko'rinishdagi Saodat, Hamza va xor kuylovchi sahna tugallanishi kabilari.

Birinchi ko'rinishda hayotga muhabbat qo'ygan va barcha o'y hayollari ezgulikka yo'g'rilgan Hamza obrazi ko'rsatiladi. Hamza ariyasining ohangi o'zbek milliy ashulalar ohangiga juda ham mos. Bu nuqtai nazardan Hamza ariyasining shakli ham e'tiborlidir. Mazkur ariya Sobir Boboyev tomonidan lirik ashula ruhida yaratilgan bo'lib, uning xususiyatlari ariyadagi kuy-ohang rivojlanishi, o'rta qismdagi avj hamda qisqartirilgan repriza kabilarda nomoyon bo'ladi. Shuningdek ariyada milliy qo'shiqchilikka xos hanglarni (ho-o-o-o, jo-o-o-o-on) uchratish mumkin va uni shakl jihatdan daromad, miyonxat, dunasr – avj va tushirim kabi qismlarga ham ajratish mumkin.

Хамза арияси

Хамза

5

Folklor ohanglari xususida gap ketganda, Alijon va Sanobar duetini alohida ta'kidlash joiz. Ikkila yosh biri-biriga bo'lgan sevgi-muhabbatni tarannum etib, o'zbek milliy ufori usulida qo'shiq kuylashadi. Bunda folklorga juda ham xos o'ynoqi ohanglar, diapazonning unchalik ham keng emasligi, kupletlilik kabi omillar o'z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.M.Veksler. Ocherki istorii o'zbekskoy muz'kal'noy kul'turi. Toshkent 1965.
2. T.S.Vizgo. "Razvitiya muzikal'noy kul'turi O'zbekistana i yeyo svyazi s ruskoy muzikoy" Moskva 1970.
3. T.Ye.Solomonova. "O'zbek musiqasi tarixi". Toshkent "O'qituvchi", 1981.
4. I.N.Karelova. "Voprosi muzikalnoy kulturi Uzbekistana". Toshkent, 1961.
5. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE.

6. Jalilova, R. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA QALAMTASVIR TEXNOLOGIYASINI O'QITISHNING DIDAKTIK PRINSIPLARI. *Scienceandinnovation*, 1(C2),
7. Jalilova, R. (2022). THE DEVELOPMENT OF VISUAL ART IN PENCIL DRAWING, PAINTING, COMPOSITION AND INDEPENDENT PAINTING. *Science and Innovation*, 1(3),.
8. Jalilova, R. (2022). HEREDITARYDISEASES. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11),
9. Jalilova, R. Q. (2022). About identification of one model of nonstationary filtration. *Математическое и компьютерное моделирование естест-венно-научных и социальных проблем: материалы XVII Всерос*, 131.
10. Jalilova, R. Z. (2023). Representation of Human Face, Hands, Clothes in Painting and Pencil Drawing. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18,
11. Jalilova, R. (2023). EDUCATIONAL METHODOLOGY OF AESTHETIC EDUCATION OF LANDSCAPE PAINTING. *Science and innovation*, 2(C7),
12. Jalilova, R. (2023). HISTORY OF LANDSCAPE IN MIDDLE ASIAN WORKS OF ART, PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Science and innovation*, 2(C7),
13. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
14. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
15. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
16. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarkailnowacje.*, 34,
17. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34,
18. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5),

19. Achildieva, M., &Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA" LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4),
20. Xojimamatov, A., &Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4),
21. Khojimamatov, A., &Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8,
22. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2),
23. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
24. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2),
25. Achildiyeva, M.,& Ikromova, F. THE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN VALUES IN YOUNG PEOPLE'S LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, Vol 10 Issue02, Feb 2021ISSN 2456-5083
26. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., &Ikromova, F. (2022). Shashmaqomsaboqlari:" Navo" maqomixususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01),
27. Achildiyeva M 2021 Academic YunusRajabi and His Scientific Heristage *Annals of Romanian Society for Cyell Biology* 25(4)
28. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., &Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9),
29. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., &Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6),
30. Achildieva, M., &Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).
31. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.

32. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET "TOMARIS" IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE SPECTRUM *Journal of Innovation, Reforms and Development* (2022) ISSN (E):2751-1731

33. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643

34. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023

35. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023

36. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O'ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O'RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384

37. Xojimamatov A. Atkiyoeva R. "VODIY BULBULI" TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287

38. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET "TOMARIS" IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)

39. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL "An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal" 2 (4)

40. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan BotirUmidjonov *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022)* ISSN 2795-7683

41. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* 9(5)

42. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-ACHIHГ «ХАМНАФАС» ХОФИЗЛАРИ" *ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION* Vol. 10 No. 1 (2023)

43. Xojimamatov A The Process of Changes and Depreciation of the Aesthetic Effectiveness of Musical Values under Globalization *Journal of Creativity in Art and Design* Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 11 <http://journals.proindex.uz>

44. Achildiyeva, M Historical Development of Uzbek Musical Art Stages and Ways of Improvement Journal of Creativity in Art and Design *Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 20* <http://journals.proindex.uz>